



The policy of dispossession and its consequences

Ugiloy ERBUTAeva¹

Gulistan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 15 June 2024
Available online
25 June 2024

Keywords:

collectivization,
dispossession,
special settlements,
exile,
repression,
special settlers.

ABSTRACT

The policy of collectivization of agriculture was carried out along with the liquidation of peasant farms, confiscation of their property, and exile of the peasants themselves and their families. The article reveals the goals and consequences of the policy of dispossession, emphasizing that this policy is a system of repressive measures; based on factual data, it is shown that special settlements were created for exiled kulaks, where members of their families were also placed.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3-pp52-55>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Quloqlashtirish siyosati va uning oqibatlari

Kalit soʻzlar:

jamoalashtirish,
quloqlashtirish,
maxsus posyolkalar,
surgun,
qatagʻonlik,
maxsus koʻchirilganlar.

ANNOTATSIYA

Qishloq xoʻjaligini jamoalashtirish siyosati oʻziga toʻq dehqon xoʻjaliklarini quloq qilish, ularni mol-mulkini musodara etib, oʻzlarini oila aʼzolari bilan surgun qilish bilan birga olib borildi. Maqolada quloqlashtirish siyosatining maqsadlari va oqibatlari ochib berilgan, bu siyosatning qatagʻonlik chora-tadbirlar tizimi ekanligi taʼkidlangan, surgun qilingan quloqlar uchun maxsus posyolkalar tuzilib, ularning oila aʼzolari ham u yerga joylashtirilgani faktik maʼlumotlar asosida koʻrsatilgan.

Политика раскулачивания и ее последствия

Ключевые слова:

коллективизация,
раскулачивание,
спецпоселения,

АННОТАЦИЯ

Политика коллективизации сельского хозяйства проводилась вместе с ликвидацией крестьянских хозяйств, конфискацией их имущества, ссылки самих крестьян и их семей. В статье раскрываются цели и последствия

¹ Candidate of Historical Sciences, Head of the Museum of Victims of Repression, Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan.

ссылка,
репрессии,
спецпереселенцы.

политики раскулачивания, подчеркивается, что эта политика представляет собой систему репрессивных мер, на основе фактических данных показано, что для ссыльных кулаков создавались специальные поселения, куда помещались и члены их семей.

KIRISH

Sovet qonunchiligida quloq (kulak)larning me'yoriy ta'rifi Xalq Komissarlari Kengashining 1929-yil 21-maydagi "Quloqlar xo'jaliklarining xususiyatlari to'g'risida"gi qarorida berilgan. Ta'kidlanishicha, dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlarida yoki hunarmandchilik va korxonalarda (istisnolardan tashqari) yollanma mehnatdan muntazam foydalansa, xo'jaligida mexanik dvigatelli sanoat korxonasi bo'lsa... yoki xo'jalik a'zolari savdo-sotiq, sudxo'rlik, tijorat vositachiligi (masalan, sotuvchi) bilan shug'ullansa yoki boshqa mehnat bilan topilmagan daromadga ega bo'lsa (shu jumladan, ruhoniylar)" quloq hisoblangan [1].

XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda Sovet hukumatining qatag'on siyosati nafaqat o'zbek tarixchilari, balki xorijlik tadqiqotchilarning ham diqqat markazida turgan mavzu sanaladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda bir qator jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, yuqorida aytib o'tilgan muammoning ayrim qirralari, xususan, kollektivlashtirish davridagi repressiya shakllari va ularning g'oyaviy-huquqiy asoslari hali yetarlicha o'rganilmagan.

MATERIAL VA METODLAR. ADABIYOTLAR TAHLILI.

Jamoalashtirish, quloqlashtirish siyosatining turli jihatlari bo'yicha tarixshunoslikning deyarli 100 yillik tarixi mobaynida turli xil adabiyotlar, manbalar yaratildi, yuzlab ilmiy tadqiqotlar yozildi. Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar va tadqiqotlarda asosan partiyaning yangi siyosati qo'llab-quvvatlanib, uning zaruriyatini asoslab berishga harakat qilindi. XX asrning 80-chi yillarigacha, shuningdek, quloqlarni sinf sifatida tugatish, partiyaning qishloqdagi siyosati haqida ko'plab ilmiy ishlar, maqolalar yozildi. Ayrim hollarda mualliflar ochiq arxiv ma'lumotlari va gazeta va jurnallardagi maqolalardan, partiya va sovet rahbarlarining chiqishlaridan foydalanishdi. 1980-yillar oxirida sobiq SSSRda sodir bo'lgan o'zgarishlar tarix faniga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Agar avvallari tarixning asosiy qahramonlari partiya g'oyalari, sinflar va boshqalar bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarda alohida shaxs, uning tarixdagi o'rni, jamiyat tarixining inson taqdiriga ta'siri o'rganila boshlandi. Quloqlarning sinf sifatida tugatish tarixida "oq dog'larni" o'rganishga kirishib, quloqlashtirish inson qadr-qimmatini toptalganiga, maxsus posyolkalardagi turmush sharoitlariga, sovet davri siyosatining qoralanishiga bag'ishlandi.

Endilikda tarixchilar uchun ilgari maxfiy hisoblangan arxiv hujjatlari faktik manba sifatida xizmat qila boshladi. Quloqlashtirish, jamoalashtirish siyosati, sovet davrining butun tarixi xolisona yoritila boshlandi. 1994-yilda rossiyalik olim N.A. Ivnitkiy arxiv hujjatlari asosida monografiya yozib, quloqlashtirish va surgun o'sha davrdagi na siyosiy, na ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga bog'liq bo'lmaganligini isbotlab berdi [7].

XXI asr boshlaridan buyon bugungi kungacha quloqlashtirish va ommaviy qo'chirishlarning sovet jamiyatining tuzilmasiga ta'sirini baholovchi maxsus ishlar paydo bo'ldiki, ularda quloqlashtirish stalincha rejimning ijtimoiy siyosatining maqsadga yo'naltirilgan siyosati ekanligi, bu siyosat an'anaviy jamiyatni parchalashga qaratilgani va dehqonlarning ko'p qismini marginal holatga keltirgani haqidagi fikrlar bildirildi. Mazkur maqola hajmi bu ishlarning barchasini sanab o'tishga imkon bermasligi tufayli, biz faqat ayrim manbalarni ko'rsatib o'tamiz, xolos.

R. Shamsutdinovning jamoalashtirish, quloqlashtirishga bag'ishlangan bir qator kitoblari va ilmiy maqolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular arxiv hujjatlari asosida yozilgan [14; 15; 16; 17]. Shuningdek, respublikamizdagi yetakchi tarixchi olimlar ham sovet davri tarixini yoritib, jamoalashtirish, quloqlashtirishga baho berishgan [3].

A.P. Jivets SSSRdagi quloqlashtirishning siyosiy maqsadlarini ochib berishga harakat qildi. Quloqlarning tarixiy jarayondagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlaridagi o'rnini ochib berib, quloqlashtirishning ijtimoiy-siyosiy omillarini tahlil qildi [5]. B.M. Rasulov jamoalashtirish davridagi siyosiy qatag'onliklarning shakllari va g'oyaviy asoslarini ochib bergan. Shuningdek, XX asrning 20–50-yillarida O'zbekistondagi kollektivlashtirish jarayoni, undagi siyosiy qatag'onlar, dehqonlarning surgundagi ahvoli, ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashi va surgundan ozod qilish tarixini ochib berilgan [9; 10].

M.A. Ergasheva O'rta Osiyo qishlog'ining 1930–1950-yillar tarixshunosligida yoritilishini tahlil qilib, A. Itkin, R. Aminova, O. Jamolov kabi olimlarning ishlari haqida fikr yuritgan [18]. M.A. Darmonova Toshkent shahridagi quloq qilingan xo'jaliklar haqida arxiv hujjatlari asosida yozgan [4].

Tadqiqotning metodologiyasini an'anaviy tarixiy tadqiqot metodlari xolislik, tarixiylik, tizimlilik tashkil qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrning 20-yillarida Sovet O'zbekistonidagi tarixiy voqealar rivojiga Ittifoq markazining siyosiy jarayonlari kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1930-yil yanvar oyidan boshlab sovet Ittifoqida qishloqlarda, xususan, o'zbek qishloqlarida yoppasiga kollektivlashtirish jarayonining kuchayishi bilan voqealar jadal rivojlandi. Arxiv hujjatlari ushbu davrda Sovet va partiya organlari tomonidan qonunlarni buzish holatlari keskin ko'payganligini ko'rsatadi.

Yoppasiga kollektivlashtirish jarayonida bolsheviklar, birinchi navbatda, siyosiy repressiya sub'ekti sifatida Sovetlar hokimiyatini saqlab qolishga intildilar. Yoppasiga kollektivlashtirishning dastlabki yillarida Sovet tuzumiga va quloqlashtirishga qarshi harakat tez orada ommaviy namoyishlarga aylandi va hatto sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurashni keltirib chiqardi. Bolsheviklar hokimiyatni saqlash va uni himoya qilishga g'amxo'rlik qilib, ma'muriy buyruqbozlik, bosim va kuch ishlatish imkoniyatlaridan to'liq foydalandilar [11].

Butun mamlakatni qamrab olgan "favqulodda holat" Sovet qonunchiligini takomillashtirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kursiga mo'ljallangan edi. Biroq, buning aksi sodir bo'ldi: qonunsizlikni qonuniylashtirgan adolatsiz qarorlar qabul qilina boshladi. Sovet qonunchiligiga binoan repressiv choralarni qo'llash asosan sud organlariga va qisman OGPU va NKVDga tayinlanganiga qaramay [12, 27-32 b.], sudga tegishli bo'lmagan tashkilotlarning vakolatlari kengaytirildi. "Uchlik" ning sud funksiyalari, tuman va viloyat ijroiya qo'mitalari, shuningdek ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxslarning qarorlari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Partiya direktivalari, OGPU buyruqlari, komissarlar sirkulyarlari va boshqa qonunosti hujjatlarining ustunlik davri boshlandi [8, b.22].

Markaziy ijroiya qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1930-yil 1-fevraldagi "yoppasiga kollektivlashtirish sohalarida qishloq xo'jaligini sotsialistik qayta tashkil etishni kuchaytirish va quloqlarga qarshi kurash choralari to'g'risida" qaroriga binoan mahalliy hokimiyat quloqlarga qarshi kurashish uchun barcha vakolatlarni oldi – ularning mulkini musodara qilinishidan to surgungacha [13, b.323].

O'zbek qishloqlarida mahalliy Kengashlarga quloq xo'jaliklariga ma'muriy jarima solish vakolati berildi [13], paxta yig'im-terimi rejasini bajarmagan bo'lsa, ulardan tegirmonlar va suv maydalagichlarini tortib olish, keyinchalik kolxozlar va kolxoz kooperativlariga imtiyozli

shartlarda sotilgan. Faqat sud organlarining vakolati bo'lgan bunday ma'muriy jazolarni qo'llash bo'yicha vakolatlarning mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilishi kollektivlashtirish jarayonida ommaviy siyosiy repressiyalarni olish uchun huquqiy asos yaratdi.

Qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va "quloqlarni sinf sifatida tugatish" siyosatini amalga oshirishda O'zSSR Jinoyat kodeksiga binoan "aksilingilobiy harakatlar va ma'muriy tartibga qarshi jinoyatlar" uchun qatl va qamoq kabi qatag'on turlari qo'llanilgan [12]. Aksilingilobiy harakatlar toifasiga Sovet hukumatini ag'darish va uni zaiflashtirishga qaratilgan har qanday harakat yoki harakatsizlik kirardi.

1924-yil 31-oktyabrda "SSSR va Ittifoq Respublikalari Jinoyat qonunchiligining muhim asoslari"ga muvofiq qabul qilingan va 1-yil 1926-iyulda kuchga kirgan O'zSSR Jinoyat kodeksida jinoyatlar ikki toifaga bo'lingan: a) Sovet tuzumi asoslariga qarshi qaratilgan; b) boshqa jinoyatlar.

Kolxoz tizimiga qarshi chiqqan yoki unga hamdardlik bildirmagan dehqonlarga nisbatan qo'llanilgan eng ommaviy qatag'onlar quloqlashtirish siyosatida o'z ifodasini topdi.

"Quloqlarni sinf sifatida tugatish" siyosati jarayonida ba'zi oilalarning hayoti fojiali rivojlandi, boshqalari esa boshqa odamlarning baxtsizligi tufayli ushbu fojia tufayli mulk, siyosiy maqom va imtiyozlarga ega bo'lishdi. Quloq xo'jaliklarini aniqlashda, inspektorlardan yashiringan oila boshliqlarini qo'lga olishga hissa qo'shgan odamlar rag'batlantirildi. Paxta topshirmagan xo'jaliklari haqida xabardor qilgan shaxslarga topilgan paxta qiymatining 15% miqdorida mukofot to'langan, ular respublikaga maxsus xizmatlar uchun shaxsiy pensiya tayinlangan fuqarolar ro'yxatiga kiritilgan.

Sovet hukumati ovoz berish huquqidan mahrum qilish orqali qonuniy asosda kolxoz tizimiga qarshi bo'lgan siyosiy faol dehqonlarni cheklashi mumkin edi. 1929–1936-yillarda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra ovoz berish huquqidan mahrum bo'lgan shaxslarning nafaqat siyosiy, balki fuqarolik huquqlari ham cheklangan. Ular kolxozlarga qabul qilinmadi, ishdan bo'shatildi, ularga tovarlar va ratsion kartalari berilmagan, hech qanday lavozimga tayinlanmagan, oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtlariga qabul qilinishiga to'sqinlik qilingan. Bu jarayon 1936-yilgacha, ya'ni SSSRning yangi qabul qilingan Konstitutsiyasida ovoz berish huquqidan mahrum qilish bekor qilinguncha, davom etdi.

Ijtimoiy tabiat bo'yicha kollektivlashtirish jarayonida siyosiy repressiyalarning funktsiyalari ikki tomonga – butun jamiyatga va ayrim shaxslarga nisbatan qaratilgan edi. Birinchi tomonda sovet jamiyatining ma'naviy hayoti va erkinligiga kuchli bosim o'tkazish orqali qishloqlarda ijtimoiy qo'rqitish muhiti yaratildi. Mehnat va boshqa sohalarda iqtisodiy bo'lmagan zo'ravonlik kuchayib, majburiy mehnatni tashkil yetish asosiy omilga aylandi. Jamiyatda birdamlik uchun xavf tug'diradigan g'oyalari va harakatlar ustidan nazorat o'rnatildi.

Ikkinchi tomonda shaxsga qarshi qaratilgan siyosiy qatag'onlar dehqonlarni bolsheviklar siyosiy rejimiga bo'ysunishga majbur qildi. Sotsializm g'oyalari, shiorlari va nazariyasiga ishonish o'rnatildi. Barcha mavjud usul va vositalar bilan marksizm-leninizm g'oyalari keng xalq ommasi ongiga kiritildi. Intellektual faoliyat va ijod yerkinligini cheklash orqali rasmiy kommunistik mafkura axborot vakuumini yaratdi.

Jamiyatdagi mafkuraviy bosim maqsadida "quloq" ("mushtumzo'r"), "xalq dushmani", "zararkunanda" obrazlari sun'iy ravishda yaratilgan. Siyosiy qatag'on ob'yektlari – boy dehqonlar, mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar va boshqalarga nisbatan salbiy fikr singdirilib, ularga zarar yetkazish istagi paydo bo'ldi. O'sha yillarda "yot unsur" atamasi keng qo'llanilgan va bu shaxsiy munosabatlardagi qarama-qarshiliklarning kuchayishining yorqin namunasiga aylandi va bolsheviklar tomonidan "yot unsurlarga" qarshi "adolatli chora" sifatida zo'ravonlik ishlatish uchun asos bo'lib xizmat qildi [10].

Shunday qilib, Sovet hukumati va bolsheviklar qisqa vaqt ichida yoppasiga kollektivlashtirish va quloqlashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirish maqsadlarini amalga oshirishda qatag'on siyosatini eng oddiy va shafqatsiz usuli sifatida qo'lladilar. Bu jarayonda sinfiy kurash g'oyasi bilan qurollangan bolsheviklar mahalliy hokimiyat vakillari va kambag'al dehqon mehnatkashlarining faolligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdilar. Quloqlardan tortib olingan mulkning bir qismini kambag'al va kolxozlarga o'tkazish orqali ular kolxozchilarning ushbu siyosatga qiziqishini ta'minladilar.

Sovet sudlari va "uchlik"lar, OGPU va NKVD organlari, mahalliy ijroiya qo'mitalari va turli ijtimoiy institutlarning sud funksiyalari orqali qishloq aholisiga huquqiy, iqtisodiy va mafkuraviy bosim o'tkazildi.

XULOSALAR

Tahlildan ma'lum bo'lishicha, hokimiyat siyosati ostida egalikdan mahrum qilish nafaqat boy quloqlarni o'z ichiga oldi (va ular ozchilik edi, chunki inqiloblar, fuqarolar urushi va totalitar rejim, ularning ulushi 2%dan ko'p bo'lmagan, shuningdek, kolxozlar tashkil etilishiga qarshi bo'lgan dehqonlar va o'rta dehqonlarning bir qismi edi).

Quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosati siyosiy ustuvorlik kasb etib, unga qarab jamoalashtirish siyosatining sur'atlari belgilanardi. 1930-yilda quloqlar sinf sifatida tugatilganidan keyin hokimiyat siyosatining rejaları jamoalashtirishga qaratildi.

Quloqlashtirish kabi ommaviy qatag'onlik davomida maxsus posyolkalarning tizimi yaratildi, minglab maxsus ko'chirilganlarni xo'jaliklarda ishlatish tajribasi to'plandi. Quloqlarni sinf sifatida tugatish orqali sotsialistik jamiyatning sinfiy asosi qurilganligi, sotsializmga faqat ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurash orqali erishish mumkinligi g'oyasi ilgari surildi.

Quloq qilinadiganlarning toifalari va miqdoriy normalari sovet organlari tomonidan belgilab berilgan. Birinchi toifaga "aksilinqilobiy faollar" – terror va "sovetlarga qarshi faoliyat" tashkilotchilari kirgan. Ular siyosiy jinoyatchilar sifatida qamoqqa olinishi, qatag'on qilinishi yoki hatto otilishi kerak bo'lgan. Ularning oilalari mamlakatning uzoq rayonlariga surgun qilingan. Kollektivlashtirishga qarshi faol kurashganlar, yirik quloqlar va sobiq yarim pomeschiklar, ya'ni ikkinchi toifa vakillari ham o'sha uzoq joylarga surgun qilinganlar. Quloq qilinganlarning qolgan qismi uchinchi toifaga mansub bo'lib, ular avval o'zlari yashab turgan o'lka va viloyatlar hududiga, ammo o'zlarining xo'jaliklar, turar joylaridan tashqari joylarga surgun qilinganlar. Bundan tashqari, quloqlarni 1932–1935 va 1937–1938-yillarda qatag'on girdobiga tortilgan va Ikkinchi jahon urushi mehnat fronti hamda janggohlarida ishtirok etganlar [4].

Bugungi kunda quloqlashtirish siyosatining miqyosi va ahamiyatini, uning jamiyat uchun oqibatlarini o'rganish dolzarb muammolardan hisoblanadi, chunki alohida olingan viloyat, tumash, qishloqlar bo'yicha tadqiqotlarni olib borishni davom ettirish mumkin.

TASHAKKURNOMA

Maqolani yozishda O'zMU professori Z.I Shanxojayevaga maslahatlari uchun hamda Guliston davlat universiteti axborot-resurs markazi xodimlariga kerakli adabiyotlarni taqdim etganlari uchun tashakkurimizni bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Постановление СНК от 21 мая 1929 года «О признаках кулацких хозяйств, в которых должен применяться кодекс законов о труде» // «СЗ СССР», 1929, № 34, ст. 301; «Известия ЦИК СССР и ВЦИК», № 114. (22.05.1929).

2. Абдуллаев М. Ўзбекистондаги “қулоқ посёлкалари” совет тузумининг жазо-ватагон муассасалари сифатида // Тарихнинг номаълум саҳифалари. 10-китоб. – Т.: Академнашр, 2022. -72-86 б.
3. Алимова Д., Голованов А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологии – Т., 2002.
4. Дармонова М.А. Совет ҳокимиятининг қулоқлаштириш сиёсатига оид // Scientific Progress| Volume 1| Issue 1| P. 18-27.
5. Живец А.П. Политические цели раскулачивания в СССР. // Этносоциум. 2023. №5 (179). С. 36-43.
6. Захаровский Л.В. Политика «ликвидации кулачества как класса» и ее проведение в Уральской области» 1929-1933 гг. Автореф.дис...к.и.н. – Екатеринбург, 2000. – 31 с.
7. Ивницкий Н.А. Коллективизация и раскулачивание. – М., 1994.
8. Политбюро и крестьянство: высылка, спецпоселение. 1930-1940; Документы и материалы. В 2 кн. Кн. 1. – М.: РОССПЕН, 2005.С.22
9. Расулов Б.М. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929–1959 йй.) – Т.: 2012. – 366 б.
10. Расулов Б.М. Политические репрессии в период коллективизации в Узбекистане в 20-30-е годы XX века // International scientific review. 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/politicheskie-repressii-v-period-kollektivizatsii-v-uzbekistane-v-20-30-e-gody-hh-veka/viewer>
11. Советская деревня глазами ВЧК – ОГПУ – НКВД. 1918-1939. Документы и материалы. Т. 3. Кн. 1. М.: РОССПЕН, 2003
12. Свод уголовных законов УзССР, с изменениями и дополнениями до 1 апреля 1932 года Т.: Уз Госиздат, 1932. С.27-32.
13. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы». В трех томах. (Редактор Д.А.Алимова, составители Р.Т.Шамсутдинов, Б.М.Расулов). Том 1. – Т.:Шарқ, 2006.
14. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. – Т.: “Шарқ”, 2001. – 368 б.
15. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қатагон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). – Т.: “Sharq”, 2012. – 432 б.
16. Шамсутдинов Р. Кишлоқ фожеаси: жамолаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Урта Осиё республикалари мисолида). – Т.: “Шарқ”, 2003.
17. Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. – Т.: “Шарқ”, 2005.
18. Эргашева М.А. Освещение истории коллективизации, раскулачивания и изгнания в Узбекистане // Universum: общественные науки. 2020. № 9(68). [https://7universum.com/pdf/social/9\(68\)%20\[18.09.2020\]/Ergasheva.pdf](https://7universum.com/pdf/social/9(68)%20[18.09.2020]/Ergasheva.pdf)